

## MUHOFAZA ETILADIGAN TABIIY HUDUDLAR TIZIMINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI

*Mamirova Zulfiya Ibroximjon qizi*

*Farg'ona davlat universiteti geografiya yo'nalishi magistranti*

**Annotation.** Maqolada muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tizimini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan konsepsiylar va amalga oshirilgan tadqiqot natijalari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tizimini yaratish bilan bog'liq mezonlar va yondashuvlar tahlil qilindi.

**Kalit so'zlar:** muhofaza etiladigan tabiiy hududlar, EKONET, barqaror rivojlanish, biologik va landshaft xilma-xilligi, turizm, rekreasija, ekotizm.

### СТРАТЕГИЯ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ СИСТЕМЫ ОХРАНЯЕМЫХ ПРИРОДНЫХ ТЕРРИТОРИЙ

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются результаты проведенных исследований и концепции по совершенствованию системы охраняемых природных территорий. А также, анализированы критерии и подходы связанные с созданием системы природноохраняемых территорий.

**Ключевые слова:** охраняемые природные территории, эконет, устойчивого развития, биологического и ландшафтного разнообразия, туризм, рекреация, экосистема.

### STRATEGY FOR SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF THE SYSTEM OF PROTECTED NATURAL AREAS

**Abstrast.** This article discusses the results of the research and the concept of improving the system of protected natural territories. And also, the criteria and subcontractors associated with the creation of a system of nature conservation areas are analyzed.

**Keywords:** protected natural areas, econet, sustainable development, biological and landscape diversity, tourism, recreation, ecosystem.

**Kirish.** Bugungi kunda "barqaror rivojlanish" konsepsiysi talablarini bajarish dunyo mamlakatlari oldidagi asosiy maqsadlardan biri hisoblanadi. Chunki, mazkur konsepsiyasining asosiy maqsadlaridan biri - ekologik havfsizlik va barqarorlikni taminlash bo'lib, insoniyatning barcha zaruriy ehtiyojlarini optimal darajada qondirish uchun zarur bo'lgan ekotizimlar va ulardagi barqaror faoliyat sharoitini ta'minlashdan iboratdir. Dunyo bo'yicha iste'mol qilinayotgan

resurslarning qashshoqlashib bor ayotganligi va ekologik muammolarning keskinlashuvi muhofaza etiladigan tabiiy hudud(METH)lar tizimini takomillashtirishni talab etmoqda. Shuning uchun, halqaro tashkilotlar tomonidan METHlar tizimini takomillashtirishning huquqiy, iqtisodiy va tashkilish mexanizimlari yaratilgan bo'lib, yillar davomida uni takomillashtirilib borilayotganligini ko'rishimiz mumkin. Bu borada rivojlangan davlatlarda METHlar tarmog'i va ekologik karkasini yaratish bo'yicha amalga tadbiq etilayotgan ilg'or tajribalarni o'rganishning ahamiyati kattadir. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida 2019-2028 yillar davrida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasi hamda uni amalga oshirish bo'yicha tasdiqlangan Harakatlar rejasida belgilangan vazifalar ham tadqiqot ishing dolzarbligini ifodalaydi.

Ishning maqsadi va vazifalari. Shuning uchun, tadqiqotning maqsadi METHlar tizimini takomillashtirishning ekologik-geografik asoslarini o'rganishga qaratildi. Qo'yilgan maqsad doirasida tadqiqotda quyidagi vazifalar belgilandi: METHlarning yaxlit tizimini tashkil etish bilan bog'liq ilmiy yondashuvlarni taxlil qilish hamda halqaro tajribalarni o'rganish.

Asosiy qism. METHlar tizimini rejalashtirish bo'yicha dastlabki ishlar XX asrning 70 yillarida Yevropa qit'asida boshlangan bo'lib, dastlabki tadqiqotlar 1980-yillarning boshlarida Estoniya, Daniya, Germaniya, Gollandiya va Chexoslovakiyada amalga oshirilgan. Atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha milliy strategik rejalar va konsepsiyalarda METHlar Yevropa qit'asi ahamiyatiga molik bo'lgan landshaftlar, biologik turlar hamda ularning yashash joylarini saqlab qolishga imkon beruvchi tabiatni muhofaza qilishning eng qulay shakli sifatida baholangan [2]. Masalan, BMTning Butunjahon atrof-muhit va rivojlanish Komissiyasi tomonidan 1987 yilda taqdim etilgan "Bizning umumiy kelajagimiz" ("Our Common Future") hisobotida mamlakatlarning barqaror rivojlanishi iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik ko'rsatkichlari bilan belgilanishi e'tirof etilgan [1]. Ekologik barqarorlik ko'rsatkichi sifatida tabiat resurslaridan oqilona foydalanish, qayta tiklanuvchi va qayta tiklanmaydigan resurslardan foydalanishning optimal nisbatlarini aniqlash, bioxilma-xillikni, atmosfera va ekotizimning barqaror tabiiy holatini saqlash kabi ko'rsatkichlarga e'tibor qaratildi. Shuningdek, mazkur konsepsiya barqaror rivojlanishni ta'minlashning eng muhim yo'nalishlaridan biri-METHlarni tizimini tashkil etish belgilangan.

Shuning uchun, XX asrning 90-yillaridan deyarli barcha mamlakatlarda METHlar tizimini takomillashtirishga alohida e'tibor berila boshlandi. Ayniqsa, 1993 yilda qabul qilingan «Turlar va landshaftlar xilma-xilligini saqlash bo'yicha Pan-Evropa strategiyasi»da jahonda birinchi ekologik tarmoqlarni tashkil etish e'lon qilindi. Unda METHlar biosferani barqaror holatini va inson hayoti uchun

qulay tabiiy muhitni ta'minlash vazifasini bajaruvchi tabiiy hudud(akvatoriya)lar bo'lib, hududiy jihatdan bir-biri bilan o'zaro bog'langan tizim sifatida baholangan. Shuningdek, Pan-Evropa strategiyasida tabiat merosi sifatida noyob landshaftlar va bioxilma-xillikni saqlab qolish hamda jamiyatni barqaror rivojlanishini ta'minlash METHlar tizimi orqali amalga oshirish zaruriyatni ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

METHlarni koordinasion boshqaruvini takomillashtirish maqsadida Butunjahon Kongressi tomonidan bir qator muhim bo'lgan xujjatlar qabul qilingan. Masalan, bu boradagi eng muhim hujjatlardan biri Durban harakat Rejası (2004) bo'lib, unda biologik xilma-xillikni saqlab qolish va turizmni rivojlantirish bo'yicha yangi paradigma belgilab berildi [6]. Chunki, insoniyatning o'sib borayotgan ehtiyojlarini qondirish uchun ekologik xavfsizlikni ta'minlash, antropogen yuk me'yorini aniqlash hamda tabiiy ekotizimlarni saqlab qolish dolzarb masalalardan biri sifatida belgilanmoqda. Ekologik xavfsizlikni ta'minlash va geosistemalarda antropogen yuk me'yorini aniqlash murakkab masala bo'lib, hozirgacha o'z yechimini topgani yo'q. So'zsiz, har qanday sharoitda insonning tabiatga ta'sirida ma'lum me'yorga rioya qilinishi va u ilmiy jihatdan asoslanishi kerak. Aks holda, tabiatda minglab yillar davomida shakllangan muvozanat buziladi va qashshoqlanish boshlanadi.


Bunday vazifalarni amaldagi yechimi METHlarning maydonini kengaytirish bo'lib, bu tabiatdan oqilona foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilish o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash orqali belgilanadi . Shuning uchun, qo'riqlanadigan hududlarni yagona global to'rini yaratish masalasi METHlar bo'yicha Beshinchchi xalqaro kongressida qabul qilingan Durban xarakatlar rejasida bosh maqsadlardan biri sifatida belgilangan. Unda METHlar tizimi qachonki, o'zaro bog'langan yagona to'r sifatida antropogen landshaftlar bilan to'liq integratsiyada bo'lsagina samarali faoliyat yuritishi mumkinli e'tirof etilgan.

Tabiiy hududlarni cheklanganligi sababli METHlarni tashkil qilish bo'yicha turli mezonlar tavsiya qilingan. Masalan, 1992 yilda Rio-de-Janeyroda qabul qilingan barqaror rivojlanish Dasturida "Barqaror rivojlanish uchun tayanch hududlar" tamoyili tavsiya qilingan. BMT tomonidan 2014 yilda taqdim etilgan "An Action Agenda for Sustainable Development" hisobotida mamlakatlar barqaror rivojlanishining to'rt mezoni ishlab chiqildi [9]: iqtisodiy rivojlanish; ijtimoiy barqarorlik; atrof muhitni himoya qilish va saqlash; tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash. Shuningdek, hisobotda iqtisodiy o'sish mamlakat barqaror rivojlanishining asosiy jihatni hisoblansa-da, bunda har bir mintaqada uchun atrof muhit muvozanatini ta'minlanishi inobatga olinishi zaruriyat sifatida belgilab qo'yilgan.

BMT tomonidan 2015 yil 25 sentyabrda “Dunyoni o‘zgartirish: 2030 yil davrigacha barqaror rivojlanish sohasida Kun tartibi” Rezolyusiyasi qabul qilin bo‘lib, unda 17 maqsad va 169 vazifa belgilab qo‘yilgan. Mazkur rezolyusiyada ham, Yer yuzida ekologik barqarorlikni ta‘minlashga alohida e’tibor qaratilgan bo‘lib, barqaror rivojlanishga salbiy ta’sir etuvchi ekologik muammolar va tahdidlarni bartaraf etishning muhim yo‘nalishlari ham ko‘rsatib o‘tilgan. Mazkur maqsad va vazifalarni amalga oshirishda ham METHlar muhim ahamiyatga ega. Chunki, METHlarning yaxlit tizimi tabiiy ekotizimlarni va biologik xilma-xillikni saqlab qolish, iqlim o‘zgarishini oldini olish, resurslarni qayta tiklash hamda turizimni rivojlantirish kabi ustuvor maqsad va vazifalarni bajarilishini ta‘minlash mumkin. Shuning uchun, hudud yoki ob’ektlarni muhofaza qilish maqsadida tanlab olish “makon va zamondagi o‘ziga xoslik” mezonlariga mos kelishi kerak. Masalan, A.Raxmatullaevning (2018) fikricha, biror bir mintaqada antropogen landshaft elementlari ortib ketsa, landshaftlarining tashqi ta’sirlarga chidamlilik darajasi izdan chiqib, ekologik inqiroz yuz berishi tarixiy tajribada o‘z isbotini topgan. METHlar tarmog‘ini yaratish hamda tizimni funksional jihatdan samarali ishlashi muhofazaga olingan va o‘zgartirilgan hududlar o‘rtasidagi nisbatning optimal bo‘lishiga hamda ularning reprezentativlik darajasiga bog‘liqdir. Chunki, global darajadagi ayniqsa, mintaqaviy muhofaza qilinadigan hududlar tizimining ekologik va geografik jihatdan reprezentativlik darajasi yuqori emas [7, 8].

Yuqoridagi tamoyillar va yondashuvlar asosida Butun jahon Yovvoyi tabiat Fondi tomonidan biologik va landshaft xilma-xilligini saqlab qolish uchun “Global 200” ro‘yxati tuzilgan. Shuning uchun, dunyo miqyosida METHlarning soni va egallagan maydoni yildan yilga ortib bormoqda. Masalan, keyingi 50 yil davomida METH soni 20 martaga, maydoni esa, 13 marotaba ortgan. BMTning ma'lumotlariga ko‘ra, 2018 yilga kelib METHlarning soni 238,563 ta, maydoni esa, 46,414,431 km<sup>2</sup> teng bo‘lib, quriqlik yuzasining 14.87% ni, suv

akovatoriyasining 7.27% ni tashkil etmoqda (1-diagramma)



1-diagramma. METHlarning soni va egallagan maydonining yillar davom idagi o‘zgarishi ( UNEP-WCMC, 2018).

Ushbu konsepsiya doirasida har bir mintaqaga uchun tabiiy va antropogen landshaftlarning optimal nisbatini aniqlash muhimdir. Bu borada G.I.Gladkevich (2012) va boshqalar tomonidan tabiiy va antropogen landshaftlarning optimal nisbati bo‘yicha o‘z tavsiyalarini berishgan. METHlarning turli darajadagi taiflarini va tarmoqlarini ekologik karkas darajasida shakllantirishda sistemali taxlil etish talab etiladi. Shuningdek, METHlarni eko, agro, urba va sanoatlashgan geokomplekslar o‘rtasidagi aloqadorlikni hamda o‘zaro ta’sirni tartibga keltiruvchi kompleks tizim sifatida baholash zarurdir.

Ayrim tadqiqotchilar, METHlar tizimni tarmoqdan quyidagi asosiy uchta ko‘rsatkichi bilan farqlaydi: funksional jihatdan yaxlitligi; METHlarning turli toifalari bir-biriga mos kelishi va to‘ldirishi; yagona boshqaruvni mavjudligi. Bu borada Yu.V.Volkov (2012), METHlar tizimi ekologik infratuzilmaning bir qismi bo‘lishi bilan bir qatorda tabiatdagi bir butunlikni ta’minlashi, yetarli darajada maydon kattaligiga egalik qilishi va «avtonom» bo‘lishi kerakligini ham asoslashga xarakat qilgan. Yuqoridagi tadqiqotchilar tomonidan berilgan tavsiflarga ko‘ra, METHlarning tizimi yagona boshqaruv tuzilmasiga va ilmiy-metodik ta’minotga ega bo‘lgan funksional jihatdan to‘liq va yaxlit ekologik infratuzilma sifatida shakllantiriladi. Shu bois, tizimning to‘liqligi va yaxlitligini baholash uchun METHlarning barcha toifalarini ekologik funksiyasiga ko‘ra tasniflash maqsadga muvofiqdir. Bunday tasnif tizim elementlarining tarkibini ham aniqlashga imkon beradi. METHlar «tizimi» va «tarmog‘i» tushunchalarining bir-biriga yaqin bo‘lgan hamda farqli jihatlari 1-jadvalda keltirilgan. Bundan ko‘rinadiki, tizim tarmoqdan «to‘liqlik», «yaxlitlik»,

«aloqadorlik», «o'zaro ta'sir», shuningdek, tizim elementlari o'rtasidagi o'zaro yaxlitlikni tashkil ettiruvchi «ekologik infratuzilma» sifatida ajralib turadi.

1-jadval.

METHlar «tizimi» va «tarmog'i» tushunchalarining o'ziga xos jihatlari

№	Asosiy xususiyatlari	METH tarmog'i	METH tizimi
I	<b>Tuzilishiga ko'ra:</b>		
1	Yaxlitligi		+
2	To'liqligi	+	+
3	Tartiblanganligi		+
4	Turli tarkibiy qismlar va toifalarga egaligi	+	+
5	Ierxariyaga asoslanganligi		+
6	Soddaligi	+	+
7	Murakkabligi		+
II	<b>Funksiyasiga ko'ra:</b>		
1	O'zaro ta'sir va aloqani ta'minlash		+
2	Ekologik muvozanat va barqarorlikni saqlash	+	+
3	Biologik va landshaft xilma-xilligini muhofaza qilish	+	+
4	Tabiatni muhofaza qilish va uni saqlash	+	+
5	Ko'p vazifali (universal)		+
III	<b>Tashkil etilishi va boshqarilishiga ko'ra:</b>		
1	Ma'muriy birliklar doirasida	+	+
2	Tabiiy geografik birliklar doirasida	+	+
3	Yagona boshqaruvning mavjudligi		+

Jadval O.I.Abduganiev (2023) tomonidan tuzilgan.

Bu tizim bir ma'romda faoliyat yuritishi uchun undagi elementlar muayyan bir tartibga keltiriladi. Demak, METHlar tizimini takomillashtirish bo'yicha choratadbirlar ma'muriy-hududiy birliklar yoki tabiiy geografik rayonlarning ekologik-xo'jalik holatni baholash asosida ishlab chiqilishi maqsadga muvofiqdir.

**Xulosa.** Biologik va landshaft xilma-xilligini hamda ekologik barqarorlikni ta'minlash bilan bog'liq tadqiqotlarda qo'llanilayotgan ko'plab mezonlarni ham qoniqarli deb bo'lmaydi. Shuning uchun, METHlarni tashkil etishda reprezentativlik, noyoblik, tizimlilik mezonlarni e'tiborga olish bilan birga, mintaqaning zoologik, floristik va landshaft xilma-xilligini qamrab olish xususiyatlariga ham e'tibor qaratish zarurdir.

Barqaror rivojlanish konsepsiysi va tamoyillariga ko'ra, METH tizimi ekotizimlarni mahalliy darajadan global darajagacha ahamiyatli bo'lgan yer uchastkalarini hududiy jihatdan yaxlit tarmog'i sifatida muhofaza qilish hamda oqilona foydalanish funksiyasini bajarishi kerak. Shuningdek, tabiatning alohida qismlarida biron bir populyasiyani saqlab qolish va ekologik barqarorlikni ta'minlash imkoniyatini METHlarning yaxlit tizimi bilan tenglashtirib bo'lmaydi. Chunki, METHlar tizimidagi bir butunlik uni har tomonlama ustunligi ta'minlaydi hamda mintaqaning biologik va landshaft xilma-xilligini tabiiy holatini saqlab qolishdagi samaradorligini ta'minlaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abdug'aniev O.I.. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tizimini takomillashtirish va ulardan foydalanishning geoekologik asoslari (Farg'ona viloyati misolida) // G.f.d. (DSc) ilm. dar. olish uchun taqdim. et. diss. –T., 2023. –291 b.
2. Sepp K., Kaasik A. Development of National Ecological Networks in the Baltic Countries in the framework of the Pan-European Ecological Network. IUCN Office for Central Europe. – Warsaw, 2002. – 183 p.
3. Doklad Mejdunarodnoy komissii po okrujayushey srede i razvitiyu «Nashe obshee budushee». : <http://www.un.org/ru/ga/pdf/brundtland.pdf>.
4. Dudley N. Guidelines for Applying Protected Areas Management Categories (IUCN: Switzerland, 2008) P.8-9 [http://old.unep-wcmc.org/about-protected-areas\\_163.html](http://old.unep-wcmc.org/about-protected-areas_163.html).
5. Durbanskiyakkord: Materiali Pyatogo vsemirnogo kongressa po osobo ohranyaemim prirodnim territoriyam. Per. s angl./Otv. Red. Yu.L.Mazurov – M.: Institut Naslediya, 2004. – 272 s.
6. UNEP-WCMC (2018). 2018 United Nations List of Protected Areas. Supplement on protected area management effectiveness. UNEP-WCMC: Cambridge, UK. p. 61.
7. Tishkov A.A. «Xarakternoe prostranstvo» i «xarakternoe vremya» kak klyuchevie kategorii biogeografii // Izvestiya RAN. Seriya geograficheskaya, 2016. - № 4. - S. 21-33.
8. Raxmatullaev A. O'rta va quyi Zarafshon voha geosistemalarida ekologik vaziyatni geografik optimallashtirish//Geografiya fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya. –Toshkent, 2018. –229 b.
9. Abbasov S.B. Qizilqum cho'li landshaftlari dinamikasi va ekologiyasi. Monografiya. –Samarqand. SamDU nashiriyoti, 2019. –176 b.
10. Gladkevich G.I. Territorialnie konflikti v prirodopol'zovanii // Rasional'noe prirodopol'zovanie: tradisiy i innovasiy. Materiali Mejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferensii, Moskva, MGU, 23–24 noyabrya 2012 g. / Pod obsh. red. prof. M.V. Slipenchuka. – M.: Izdatel'stvo Moskovskogo universiteta, 2013. – 328 s.

11. Volkov Yu.V. Sovremennie podxodi i osnovnie ponyatiya territorial'noy ohrani prirodi. // Izvestiya Saratovskogo universiteta. Nov. ser. 2012. T. 12. Ser. Nauki o Zemle, vip. 2. -S. 3-10.